



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No5(5)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 330 sahifa,  
22-may, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Matematika fanini o'qitishda kommunikativ va ijtimoiy-psixologik yondashuvlar .....	10
<i>Esonturdiyev Mamatqobil Nurmamatovich</i>	
Geografik axborot tizimlari (GAT) texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish metodikasi .....	13
<i>Bahromova Muhayyo Imomqul qizi</i>	
Geografiya ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari .....	18
<i>Tuyg'unov Murodjon Salimqul o'g'li</i>	
Biologiyani o'qitishda belgili-ramziy ko'rgazmalilik vositalaridan foydalanishning o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishdagi roli .....	22
<i>Azimov I. T., Daminova F. A.</i>	
PISA 2025 doirasida raqamli ta'lim kompetensiyalarini baholashning innovatsion mexanizmlari .....	25
<i>Doniyorov Muxiddin Normamatovich, Ishanov Almat Adilxanovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy savodxonligini oshirishda zamonaviy pedagogik vositalarni qo'llash .....	28
<i>Abdunazarov Bobir Normurodovich</i>	
Raqamli ta'lim resurslari asosida kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish .....	32
<i>Jumayeva Ra'no To'ychi qizi</i>	
Oila va maktab integratsiyasining shaxs kamolotiga ta'siri .....	36
<i>Rasulova Dildora Shuhratovna, Raxmatova Zulxumor Alimovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati .....	40
<i>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani shakllantirishda tabiiy fanning o'rni .....	43
<i>G'afforova Zarnigor Abdumo'min qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'limda o'qituvchi va ota-onalar ijtimoiy hamkorligini rivojlantirish .....	47
<i>Xalikova Zaxro Mirshadmanovna, Xolbo'tayev Muzaffar Odilovich, Bozorova Xadicha Javlon qizi</i>	
Nutqida kechikish kuzatiladigan bolalarda nutqni qo'l va barmoq motorikasini rivojlantiruvchi o'yinlar orqali shakllantirish .....	51
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Fotima Adizovna</i>	
Taym menejment asosida bo'lajak o'qituvchilarda liderlik fazilatlarini rivojlantirish .....	55
<i>Soliyeva Ruxsora Sharobiddin qizi</i>	
Sun'iy intellekt va NLP texnologiyalari asosida elektron ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirish .....	58
<i>Otakishiyeva Gulshano Abdulaziz qizi</i>	
Pedagogik kvalimetriya asosida bo'lajak o'qituvchilarning diagnostik madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslari .....	61
<i>G'aniyeva Muattarxon Nodirbek qizi</i>	
Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты .....	64
<i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i>	
Yosh erkin kurashchilarda chidamlilikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish .....	69
<i>Ergashov Qaxramonjon Asqarovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mantiqiy masalalar yechishga o'rgatish usullari .....	76
<i>G'iyosova Dilovar Orif qizi</i>	
Haykaltaroshlik fanining metodik qo'llanilishi .....	80
<i>Qodirov Bobirjon Botirjonovich</i>	
Ijtimoiy xavf ostidagi bolalarni qo'llab-quvvatlashning jahon tajribasi va psixologik-pedagogik asoslari .....	85
<i>Manzura Qosmuratova</i>	



Jahonda art-biznes klasterlarining ahamiyati va rivojlanish tuzilmasi.....	89
<i>A. S. Umarov</i>	
Автоматизация решения сложных математических задач графическим методом для углублённого изучения математики в школе .....	92
<i>Эргашев Серожиддин Султонмурадович, Маматов Исломбек Ильесович</i>	
Pedagogika darslarida raqamli va onlayn didaktik o'yinlardan foydalanish.....	97
<i>Qodirova Feruzaxon Abdiyaminovna</i>	
Sun'iy intellekt va tanqidiy fikrlashning kognitiv-konseptual komponenti va uni rivojlantirish metodikasi .....	102
<i>Sobirova Munavvarxon Qaxramonjon qizi</i>	
Media savodxonlik va axborot madaniyati fanida sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari .....	106
<i>Ermatov Sherzodbek Latipjonovich, Mirzayev Akramjon O'ktamjonovich</i>	
Adabiy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv .....	111
<i>To'ychiyeva Mahfuza Umarkulovna, Islomova Shalola Ismoil qizi</i>	
Comparative Study of Passive Constructions in English and Their Translation Into Uzbek.....	117
<i>Elmirzayeva Maftuna Dusmurod qizi, Mustafoyeva Nigina Shuhrat qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish orqali pedagogik mas'uliyatni shakllantirishning dolzarb muammolari .....	122
<i>Botirova Odinaxon Abdumutalib qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik modeli va metodik asoslari .....	126
<i>Haytbayeva S. R.</i>	
Imkoniyati cheklangan bolalarni psixologik qo'llab-quvvatlash orqali intellektual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari.....	131
<i>Kadirova Nigora Saxibjanovna</i>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini dual ta'lim asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy asoslari.....	134
<i>Samiyeva Zuleyxa Uktamovna</i>	
Insonlar orasidagi munosabatlarda noverbal muloqotning komponentlarining ko'rinishlari .....	139
<i>Soliyev Farxodjon Sodikovich, Karimov Jahongirjon Murodjon o'g'li</i>	
Virtual texnologiyalar vositasida texnika fanlarini o'qitish mazmunini innovatsion rivojlantirish .....	145
<i>Yuldasheva Dilorom Husniddin qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida suzish mashg'ulotlarini tashkil etish texnologiyasi.....	150
<i>Toshpulatova Aziza Toyirovna</i>	
Harbiy xizmatchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslari .....	155
<i>Tursunov Shaxzod Ramazonovich, Mansurov Sardorbek Sirojiddin o'g'li</i>	
O'qituvchilar ruhiy salomatligini saqlashning amaliy strategiyalari .....	159
<i>Begmatov Raximkul Olimovich</i>	
Ona tili darslarida analitik faoliyatni tashkil etish imkoniyatlari .....	164
<i>Narziyeva Mastura Sunnatovna</i>	
Maktabgacha ta'limda Project-Based learning texnologiyasi asosida tarbiyalanuvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari .....	168
<i>Kubayeva Mavluda, Po'latova Gullola Ravshan qizi</i>	
Talabalarda iqtisodiy savodxonlikni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari .....	173
<i>Qo'chqorov Nodir Bozorovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini baholash jarayonida foydalaniladigan texnologiyalar va vositalar .....	178
<i>A'zamqulova Zilola Sunnat qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning didaktik asoslari.....	183
<i>Isaboyeva Dilyora Zokirjon qizi</i>	
Kimyo fanining tarixiy rivojlanishida metodologik yondashuvlar .....	187
<i>Begamov Shaxzod To'liqin o'g'li</i>	
Sport bilan shug'ullanishda qo'l va oyoq motorikalarini rivojlantirish mezonlari .....	190
<i>Imomov Asliddin Abdurazoqovich, Sattarov Qarshiboy Narqulovich</i>	

O'zbek va ingliz tillarida zamon kategoriyasining qiyosiy tahlili.....	194
<i>Xudoyberdiyeva Dilfuza Alisher qizi</i>	
Hayot faoliyati xavfsizligi fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligi va rejalashtirish faoliyati.....	198
<i>Maxmudov Baxtiyor Xayrullayevich</i>	
Dizartriyali bolalarda motorikani rivojlantirish – nutqni rivojlantirishning asosiy omili .....	202
<i>Mamatova Muzayyana Batirovna</i>	
Expression of Lexical Economy in English and Uzbek Through Stylistic Means .....	205
<i>Omonov Baxtiyor Uktamovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy qobiliyatni shakllantirish.....	208
<i>Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Xamzayeva Sunbula Jasurovna</i>	
Xushmuomalalik strategiyalarining ijtimoiy vazifalari.....	212
<i>Alieva Navruza Xabibullayevna, Azizova Sanobarxon Valijon qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida shaxslilik sifatlarining kasbiy rivojlanishdagi psixologik ahamiyati .....	216
<i>Dusmetova Maksuda Matnazarovna</i>	
Maktabgacha ta'lim jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning ilustrativ yondashuv asosida kreativ va variativ faoliyat olib borish usullari va yo'llari.....	221
<i>Egamberdiyeva Madina Sharif qizi</i>	
Pragmatic Functions in Neurolinguistic Communication .....	224
<i>Fayziyeva Parvina</i>	
Sahro gavhari: ruslar istilosigacha bo'lgan davrda Xiva me'morchiligi tarixi .....	227
<i>Islomjon Xoljigitovich Mirzakulov</i>	
Moslashuvning psixologik mexanizmlari: ta'lim muhiti sharoitida shaxsning adaptatsiyasi.....	235
<i>Jaynarova Sayyora Isoqul qizi, Nuraliyeva Nasiba</i>	
Onalik psixologiyasi va o'rganishning nazariy jihatlari.....	238
<i>Kasimova Xulkar Atabayevna</i>	
Spheres of Language Use.....	243
<i>Kumakbayeva Gulbanu Kuntuarovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida kreativ tafakkurni rivojlantirishda nostandart topshiriqlar metodikasi.....	246
<i>Muxammadiyeva Dinora Tursunpulatovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari va didaktik tamoyillari.....	251
<i>N. Jurayev</i>	
Dunyo bolalari huquqlarini himoya qilish: global muammolar, tizimli kamchiliklar va tanqidiy tahlil .....	255
<i>Nargiza Ergasheva</i>	
Talabalarining dasturlashga oid agoritmik fikrlashini rivojlantirish orqali innovatsion faoliyatga tayyorlash usuli .....	259
<i>Orziqulova Barchinoy Ixtiyor qizi</i>	
Talabalarda o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining tuzilmasi va psixologik komponentlari (motivatsion, kognitiv, irodaviy, emotsional-regulyativ komponentlar) .....	264
<i>Otabekova Nargiza Avazbek qizi</i>	
O'zbek va ingliz tillaridagi metaforalarda til va madaniyat uyg'unligi.....	269
<i>Rasulova Munajat Akmaljonovna</i>	
Limitlar nazariyasini kompyuter imitatsion modellar vositasida o'qitish metodikasi.....	273
<i>Safarov Abbas Abdurasul o'g'li</i>	
Ijtimoiy hamkorlik – barkamol avlodni tarbiyalash poydevori.....	278
<i>Sharipova Gulruxsor Nurkabilovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati.....	282
<i>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</i>	
Badiiy gimnastika mashg'ulotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish .....	285
<i>Tuxtayeva Azizabonu Abdurasulovna</i>	



Matematika fanini o'zlashtirishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining semiotik yondashuvini shakllantirish ...	289
<i>Xayrullayev Ismatulla Nurullayevich</i>	
Pedagogik qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish .....	293
<i>Xoliqova Inobatxon Bo'ri qizi</i>	
Umumta'lim maktabida elektron axborot-ta'lim resurslari.....	296
<i>Xolmurodov Shuxrat Okboevich, Norqobilov Hakimbek Nuriddin o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolaning kreativligini shakllantirishda innovatsion muhit .....	300
<i>Xonnazarova Gulasal Yusuf qizi</i>	
Ta'lim tizimida sinf rahbari faoliyatining joriy etilishining tarixiy asoslari va zamonaviy ko'rinishlari .....	303
<i>Xusenova Sadoqat Botirovna</i>	
Искусственный интеллект в методике преподавания русского языка: адаптивная обратная связь и развитие коммуникативной компетенции .....	308
<i>Джалилова Феруза Намазовна</i>	
Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты.....	312
<i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i>	
Межкультурный диалог как инструмент воспитания гармоничной личности в школе .....	317
<i>Махмудхожаев Ориф Бахтиёрович</i>	
Психологические факторы успешности профессионального обучения студентов .....	319
<i>Рахимходжаева В. С.</i>	
Специфика восприятия окружающего мира в лирике Афанасия Фета .....	325
<i>Татьяна Викторовна Половинкина</i>	

# BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM MUTAXASSISLARINI DUAL TA'LIM ASOSIDA KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING NAZARIY ASOSLARI

Samiyeva Zuleyxa Uktamovna  
MTTDMQTMOI mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini dual ta'lim asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilingan. Unda dual ta'limning mazmuni, pedagogik mohiyati, maktabgacha ta'lim tizimi uchun ahamiyati hamda nazariya va amaliyot integratsiyasini ta'minlashdagi o'rni yoritilgan. Tadqiqotda kompetensiyaviy, faoliyatga yo'naltirilgan, refleksiv va amaliyotga integratsiyalashgan yondashuvlar asosida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashning asosiy tamoyillari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** dual ta'lim, maktabgacha ta'lim, bo'lajak mutaxassis, kasbiy kompetensiya, nazariya va amaliyot integratsiyasi, mentorlik, amaliy tayyorgarlik, pedagogik faoliyat.

**Abstract:** This article analyzes the theoretical and methodological foundations of preparing future preschool education specialists for professional activity on the basis of dual education. The paper reveals the content and pedagogical essence of dual education, its significance for the preschool education system, and its role in ensuring the integration of theory and practice. The study substantiates the main principles of training future specialists through competence-based, activity-oriented, reflective, and practice-integrated approaches.

**Key words:** dual education, preschool education, future specialist, professional competence, integration of theory and practice, mentoring, practical training, pedagogical activity.

**Аннотация:** В данной статье проанализированы теоретико-методологические основы подготовки будущих специалистов дошкольного образования к профессиональной деятельности на основе дуального обучения. Раскрыты содержание и педагогическая сущность дуального образования, его значение для системы дошкольного образования, а также роль в обеспечении интеграции теории и практики. В исследовании обоснованы основные принципы подготовки будущих специалистов на основе компетентностного, деятельностного, рефлексивного и практико-ориентированного подходов.

**Ключевые слова:** дуальное обучение, дошкольное образование, будущий специалист, профессиональная компетентность, интеграция теории и практики, наставничество, практическая подготовка, педагогическая деятельность.

## KIRISH

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayoni pedagog kadrlar tayyorlash mazmunini yangilash, nazariy bilimlarni real pedagogik amaliyot bilan uyg'unlashtirish va bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini amaliy faoliyatda shakllantirish zaruratini kuchaytirmoqda. Maktabgacha ta'lim sohasi o'ziga xos pedagogik jarayon bo'lib, unda mutaxassis nafaqat nazariy bilimga, balki bola psixologiyasi, rivojlanish xususiyatlari, o'yin orqali ta'lim berish, ota-onalar bilan hamkorlik qilish, xavfsiz va rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish kabi amaliy ko'nikmalarga ham ega bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining 23.09.2020-yildagi 637-son<sup>1</sup> "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida dual ta'lim zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashga qaratilgan bo'lib, uning nazariy qismi ta'lim tashkilotida, amaliy qismi esa ta'lim oluvchining ish joyida amalga oshirilishi belgilangan. Bu yondashuv bo'lajak mutaxassisni real kasbiy muhitga yaqinlashtirish, ta'lim jarayonini amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish va kasbiy moslashuv jarayonini tezlashtirish imkonini beradi.

<sup>1</sup> <https://lex.uz/docs/-5013007>



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Dual ta'limning oliy ta'lim tizimida joriy etilishi bo'yicha 2025-yilda qabul qilingan me'yoriy hujjatlarda oliy ta'lim tashkiloti, ish beruvchi tashkilot va talaba o'rtasidagi hamkorlik, dual ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, talabalarni amaliy faoliyatga biriktirish hamda amaliy mashg'ulotlar sifatini monitoring qilish kabi jihatlar belgilangan. Maktabgacha ta'lim yo'nalishida bu jarayon oliy ta'lim muassasalari va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasida tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yishni talab etadi.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi qonunchilik maktabgacha ta'lim munosabatlarini tartibga solish, yagona davlat siyosatini amalga oshirish hamda davlat dasturlarini ishlab chiqish va bajarishni nazarda tutadi. Davlat standarti esa maktabgacha ta'lim va tarbiya jarayonida davlat talablarini, prinsiplarni, tarkibiy qismlarni hamda ularning bajarilishini nazorat qilish tartibini belgilaydi. Demak, bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini tayyorlashda dual ta'lim nafaqat amaliyot shakli, balki davlat talablariga mos kasbiy tayyorgarlikni ta'minlovchi pedagogik mexanizm sifatida qaralishi lozim.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani tayyorlashda nazariy-tahliliy, qiyosiy-pedagogik, tizimli yondashuv, kompetensiyaviy tahlil va modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Nazariy-tahliliy metod orqali dual ta'limning mazmuni, pedagogik mohiyati va kasbiy tayyorgarlikdagi o'rni o'rganildi. Qiyosiy-pedagogik yondashuv asosida xalqaro tajribada ish joyida o'qitish, amaliy faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim va mentorlik tizimining ahamiyati tahlil qilindi.

UNESCO-UNEVOC ta'rifiga ko'ra, dual ta'lim maktab yoki kollejdagi ta'lim bilan ish joyidagi ta'limni birlashtiradi va bu ikki tarkibiy qism oddiy amaliyot yoki qisqa muddatli stajirovkadan ko'ra mazmunan kengroq bo'ladi. OECD manbalarida ish joyida o'qitish kasbiy ta'limning muhim qismi sifatida talaba va ish beruvchi uchun foyda keltirishi, uning samarasi esa amaliyotning davomiyligi va sifatiga bog'liq ekani qayd etiladi. Cedefop ma'lumotlarida esa amaliyotga asoslangan ta'lim yoshlar va kattalarning uzoq muddatli bandligi hamda kasbiy moslashuvini kuchaytiruvchi omil sifatida baholanadi.

Tizimli yondashuv asosida bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini tayyorlash jarayoni oliy ta'lim muassasasi, maktabgacha ta'lim tashkiloti, talaba, mentor-pedagog, ota-onalar va bolalar bilan bog'liq yaxlit pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqildi. Kompetensiyaviy tahlil esa bo'lajak mutaxassisda shakllanishi zarur bo'lgan kasbiy, kommunikativ, metodik, refleksiv va ijtimoiy-pedagogik kompetensiyalarni aniqlash imkonini berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini dual ta'lim asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash bir necha nazariy asoslarga tayanadi. Bular kompetensiyaviy yondashuv, faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, tajriba orqali o'rganish, refleksiv pedagogika va ijtimoiy hamkorlik nazariyalaridir.

*Birinchi*dan, kompetensiyaviy yondashuv bo'lajak mutaxassisni faqat bilim egasi sifatida emas, balki real pedagogik vaziyatda mustaqil qaror qabul qila oladigan, bolalar bilan samarali muloqot qiladigan, ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalay oladigan va natijalarni tahlil qila oladigan kasbiy subyekt sifatida tayyorlashni nazarda tutadi. Maktabgacha ta'lim mutaxassis uchun kasbiy kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlarda namoyon bo'ladi: pedagogik bilim, metodik mahorat, psixologik sezgirlik, kommunikativ madaniyat, refleksiv tahlil, ota-onalar bilan hamkorlik qilish va bolalarning individual rivojlanishini qo'llab-quvvatlash.


*Ikkinchi*dan, faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv dual ta'limning asosiy metodologik negizlaridan biridir. Chunki maktabgacha ta'lim mutaxassis kasbni faqat auditoriyada emas, balki real guruh xonasida, bolalar bilan muloqotda, o'yinli mashg'ulotlarni tashkil etishda, kundalik pedagogik vaziyatlarni hal qilish jarayonida o'zlashtiradi. Bu yondashuvda talaba pedagogik faoliyatni kuzatadi, tahlil qiladi, rejalashtiradi, amalga oshiradi va natijalar bo'yicha refleksiya olib boradi.

*Uchinchi*dan, tajriba orqali o'rganish dual ta'limning markaziy pedagogik g'oyasidir. Talaba nazariy bilimni amaliy vaziyatda sinab ko'rganida uning kasbiy tafakkuri rivojlanadi. Masalan, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida mashg'ulot rejasini ishlab chiqish, rivojlantiruvchi markazlarda bolalar faoliyatini tashkil etish, bolalarning rivojlanish xaritasini yuritish, ota-onalar bilan pedagogik suhbat o'tkazish kabi faoliyatlar talabaning kasbiy tayyorgarligini mustahkamlaydi.

*To'rtinchi*dan, refleksiv yondashuv bo'lajak mutaxassisning o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolarini anglash, muvaffaqiyatli pedagogik yechimlarni aniqlash va keyingi faoliyatini takomillashtirish qobiliyatini rivojlantiradi. Dual ta'limda refleksiya oddiy hisobot yozish bilan cheklanmaydi. U mentor bilan suhbat, kuzatuv varaqalari, pedagogik kundalik, vaziyatli tahlil, o'z-o'zini baholash va qayta rejalashtirish orqali amalga oshiriladi.

*Beshinchi*dan, ijtimoiy hamkorlik yondashuvi oliy ta'lim muassasasi va maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rtasida

sidagi integratsiyani kuchaytiradi. Bu hamkorlik talabaning kasbiy tayyorgarligini real ehtiyojlar bilan bog'laydi. Oliy ta'lim muassasasi nazariy-metodik tayyorgarlikni ta'minlansa, maktabgacha ta'lim tashkiloti talabaning amaliy faoliyat maydoni sifatida kasbiy ko'nikmalarni shakllantiradi. Dual ta'lim asosida bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini tayyorlashning nazariy modeli quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi mumkin:




1-rasm: Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini dual ta'lim asosida tayyorlashning nazariy modeli

Mazkur model dual ta'limni oddiy ishlab chiqarish amaliyotidan farqlaydi. Chunki unda talaba amaliyotga faqat kuzatuvchi sifatida emas, balki pedagogik jarayonning faol ishtirokchisi sifatida kiradi. U nazariy bilimni amaliy faoliyat bilan bog'laydi, mentor rahbarligida kasbiy harakatlarni bajaradi va o'z faoliyatini tahlil qiladi. Dual ta'limning maktabgacha ta'lim mutaxassislarini tayyorlashdagi afzalligi shundaki, u "bilish – bajarish – tahlil qilish – takomillashtirish" siklini ta'minlaydi. An'anaviy ta'limda talaba ko'pincha nazariy bilimlarni auditoriyada egallaydi va amaliyotga nisbatan kechroq kirishadi. Dual ta'limda esa nazariya va amaliyot parallel ravishda rivojlanadi. Bu esa kasbiy moslashuv jarayonini tezlashtiradi.

Maktabgacha ta'lim sohasida dual ta'limning samaradorligi bir qator pedagogik shart-sharoitlarga bog'liq. Avvalo, oliy ta'lim muassasasi va MTT o'rtasida aniq shartnoma, hamkorlik dasturi hamda amaliy mashg'ulotlar grafigi ishlab chiqilishi kerak. Ikkinchidan, talabaga tajribali mentor-pedagog biriktirilishi zarur. Mentor faqat nazoratchi emas, balki yo'l ko'rsatuvchi, maslahat beruvchi va kasbiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi shaxs sifatida faoliyat yuritadi. Uchinchidan, amaliy faoliyat natijalari tizimli ravishda baholab borilishi kerak. Bunda kuzatuv varaqalari, pedagogik kundalik, portfoliolar, amaliy topshiriqlar va refleksiv suhbatlardan foydalanish mumkin.

Shu jihatdan dual ta'lim bo'lajak mutaxassisning nazariy bilimlarini jonlantiradi, ularni real pedagogik vaziyatlar bilan bog'laydi va kasbiy mas'uliyatni shakllantiradi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda pedagogning emotsional barqarorligi, nutq madaniyati, mehribonligi, individual yondashuvi, xavfsizlikka rioya qilishi va ota-onalar bilan muloqot madaniyati muhim o'rin tutadi. Bunday kompetensiyalarni faqat ma'ruza yoki seminarlar orqali to'liq shakllantirish qiyin; ular asosan amaliy faoliyat, kuzatuv, mentorlik va refleksiya jarayonida rivojlanadi. Biroq dual ta'limni samarali tashkil etish uchun ayrim muammolarga ham e'tibor qaratish zarur. Jumladan, MTTlarda mentor-pedagoglarning tayyorgarlik darajasi, talabalarga amaliy topshiriqlarni bosqichma-bosqich berish, baholash mezonlarining aniqligi, oliy ta'lim muassasasi va amaliyot bazasi o'rtasidagi axborot almashinuvi, talabalarning bolalar bilan ishlashdagi psixologik tayyorgarligi muhim ahamiyatga ega.



2-rasm: Dual ta'lim jarayonida talabning bosqichma-bosqich amaliy faoliyatni egallash modeli

Agar bu jihatlar tizimli yo'lga qo'yilmasa, dual ta'lim oddiy amaliyot shakliga aylanib qolishi mumkin. Shuning uchun maktabgacha ta'lim yo'nalishida dual ta'limni tashkil etishda quyidagi pedagogik tamoyillarga tayanish maqsadga muvofiq:

- nazariya va amaliyot uzviyligi;
- talabning bosqichma-bosqich kasbiy rivojlanishi;
- mentorlik va hamkorlikka asoslangan o'qitish;
- bolaga yo'naltirilgan pedagogik yondashuv;
- refleksiv tahlil va qayta aloqa;
- kasbiy kompetensiyalarni real vaziyatlarda baholash;
- MTT ehtiyojlari va oliy ta'lim mazmunining uyg'unligi.

Mazkur tamoyillar asosida tashkil etilgan dual ta'lim bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassisining kasbiy faoliyatga tayyorgarligini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi.

## XULOSA

Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini dual ta'lim asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash zamonaviy pedagogik ta'limning muhim yo'nalishlaridan biridir. Dual ta'lim nazariy bilim, amaliy ko'nikma, kasbiy refleksiya va ijtimoiy hamkorlikni yagona pedagogik jarayonga birlashtiradi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- *birinchidan*, dual ta'lim maktabgacha ta'lim mutaxassislarini tayyorlashda nazariya va amaliyotni integratsiyalashning samarali shakli hisoblanadi;
- *ikkinchidan*, bo'lajak mutaxassisning kasbiy kompetensiyasi faqat nazariy bilimlar orqali emas, balki real MTT muhitida bolalar bilan ishlash, pedagogik vaziyatlarni hal etish va mentor bilan hamkorlik qilish jarayonida shakllanadi;

- *uchinchidan*, dual ta'limda mentorlik, refleksiya, amaliy topshiriqlar, kuzatuv va baholash tizimi muhim pedagogik mexanizmlar sifatida xizmat qiladi;
- *to'rtinchidan*, oliy ta'lim muassasasi va maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rtasidagi hamkorlik bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash sifatini oshiradi;
- *beshinchidan*, dual ta'lim asosida tashkil etilgan tayyorgarlik jarayoni bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarida pedagogik mas'uliyat, amaliy mahorat, kommunikativ madaniyat va refleksiv fikrlashni rivojlantiradi.

Shunday qilib, dual ta'limni maktabgacha ta'lim yo'nalishiga tatbiq etish bo'lajak mutaxassislarni zamonaviy kasbiy talablar asosida tayyorlash, ularning amaliy faoliyatga moslashuvini tezlashtirish va maktabgacha ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr. <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 14-son qarori, 2025-yil 16-yanvar. <https://www.lex.uz/docs/-7332601>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida"gi 163-son qarori, 2021-yil 29-mart. <https://lex.uz/uz/docs/-5346217>
4. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-595-son, 2019-yil 16-dekabr. <https://lex.uz/docs/-4646908>
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 802-son qarori, 2020-yil 22-dekabr. <https://lex.uz/ru/docs/-5179335>
6. UNESCO-UNEVOC. TVETipedia Glossary: Dual System Education Programmes.
7. OECD. Work-Based Learning and Vocational Education and Training Materials.
8. Cedefop. Apprenticeships and Work-Based Learning Materials.
9. John Dewey. Experience and Education. New York: Macmillan, 1938.
10. Lev S. Vygotsky. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press, 1978.
11. David A. Kolb. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Prentice Hall, 1984.
12. Donald A. Schön. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. Basic Books, 1983.
13. F. R. Valiyeva. The Importance of Educational Content in Preparation of Competitive Personnels. // 2nd International Conference "Bridge to Science: Research Works". San Francisco, USA, 2018-yil 28-fevral.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(5)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.